Ona yurting - oltin beshiging

# TONG yulduzi

№ 26 (66463)
2004 yil
28 iyun - 4 iyul

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar: O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI.

## XAYOLPARAST



## BELLA

Qator turnirlar, festival va tanlovlarda yuqori natijalar ko'rsata olgan tengdoshingiz Bella Bakarova Chexov nomli 103-maktab-gimnaziyasining iqtidorli, zukko o'quvchilaridan. O'z oldiga qo'ygan maqsadiga albatta erishishiga ishonamiz.

Bella 4 yoshligidanoq raqs va sinxron suzish sirlarini o'rgana boshladi. 7 yoshida «Elliks» studiyasida Xalqaro balet raqsi sporti prezidenti Vasiliy Soydan balet sirlarini o'rgandi. 9 yoshli qizaloqning olayotgan bilimlari va ijodiy ko'nikmalari hajmi juda katta: fortepiano chalishni mukammal egallayapti. Bellaning nomi turli tadbirlarda tez-tez tilga olina boshladi. Uning eng sevimli mashg'uloti-teatrga borish. Shuning uchun u ijro etgan obrazlar boshqalarga qaraganda jonliroq chiqadi va unga ko'pincha bosh rollarni ishonib topshirishadi. Bu yil «Maslenitsa» bayramiga atab namoyish qilingan sahna ko'rinishida Bella sho'x va rahmdil Garpusya xola rolini a'lo darajada ijro etdi. Yoqimli tashqi ko'rinishi, raqqosalardek harakatlari bilan uyg'unlashib ketdi. U o'z ruhiyatini tarbiyalashni 2003 yildan buyon qatnab kelayotgan «Ulden Moden» nomli bolalar va o'smirlar modalar maktabida boshladi. Poytaxtimiz modelyerlari tashabbusi bilan o'tkazilgan bir qator musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashib, ko'pchilikning olqishiga sazovor bo'ldi. Bella modalar maktabi tomonidan tashkil etilgan «Reklama» tanlovining birinchi tur g'olibi bo'lib, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Yaqinda «Reklama» obrazi uchun o'tkazilgan II- tur musobaqalarida ham ishtirok etib, III-turga qatnashish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Bu hali hammasi emas. U sportda ham bir talay ijobiy natijalarga erishdi. Uzoq masofaga sakrash, to'p uloqtirish, yugurish uning jonu dili. Hozirgi kunda u raqs va modalar biznesiga juda qiziqib qolgan. Bella «Perfekt dons-2004» sport raqslari hamda «Tansustil- 2004» musobaqalarida ham faxrli o'rinlarni egalladi. Shu kunlarda u hech bir qiyinchiliksiz yakka juftlik dasturlarini bajara oladi. Vals, kvik-step, rumbu, jayf kabi raqs turlarini mukammal biladi. Har bir chiqishida o'z raqslariga yangilik kiritib, boyitib boradi. Biror bir voqeani o'ylab topib raqsga kiritishga juda usta. U turli rasmlar chizish, badiiy kitoblarni o'qishga ham qiziqadi.

*Bella xayol surishni, orzu qilishni yaxshi ko'radi.*

*Tinib-tinchimas bu qizaloq bilan suhbatlasharkanman, uning orzulari xayolidagina qolib ketmasligiga tilakdosh bo'ldim.*

***Kamola TOSHPO'LATOVA.***

**Havas**

## LUIZI O'ZBEKCHA GAPIRADI

Mahallamizga yangi ko'chib kelgan oilaning jajjigina, moviy ko'zli, qo'ng'ir sochli qizchasi menga chiroyli tabassum bilan qarab turardi. Avval onasiga, so'ngra menga qarab o'z tilida allanimalar dedi. Men ham onamni yordamga chaqirdim. Chunki uning nimalar deyayotganini tushunmadim-da. Onamning ketlaridan ingliz tilida aytgan so'zlarini takrorlay boshladim...

Onamning aytishlaricha, bu uch yoshli qizaloq Vashingtondan bo'lib, bu yerda ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan xalqaro bog'cha-maktabga borarkan. Shu tariqa Anna Luizi ismli bu quvnoq qizaloq bilan tanishib oldik. Garchi bir-birimizni tushunmasak-da, qo'l harakatlarimiz bilan «suhbatlasha» boshladik. Oradan uch oy o'tgach, biz bemalol gaplashadigan bo'lib qoldik...

Luizining otasi janob Kristoff Rozenberg O'zbekistondagi Xalqaro valyuta Fondida, onasi Kristina Rozenbeng xonim esa reklama agentiligida ishlashardi.

O'shanda men endigina 1-sinfga o'qir edim. O'zbek tilini zo'r ishtiyoq bilan o'rganishga intilayotgan Luiziga havas qilib, men ham ingiz tilini o'rgana boshladim. Ular yakshanba kunlari biznikiga mehmonga chiqishardi. Bu esa menga juda qo'l kelardi. Bu oila a'zolarining vaqtni juda tejashlari meni lol qoldirardi. Bir haftalik ishlarini avvaldan rejalashtirib olishardi...

Hozir Luizilar oilasi Vashingtonda yashashadi. Endi uning Elizabet ismli singlisi va Paul Benedik ismli ukasi ham bor ekan. Luizi xatlarining birida nemis, ingliz, o'zbek va rus tillarida bemalol gaplasha olishi haqida yozibdi. Mening esa unga juda havasim keldi.



***Nodira MAJIDOVA,***
***Toshkentdagi 70 - maktabning 4 - sinf o'quvchisi.***




### LUQMA

*Yuragim she'rga oshno,*
*«Yozgin», deb hech qo'ymaydi.*
*Kattalar-chi, kattalar,*
*«Qofiya», deb qiynaydi.*

**Orzuxon QURBONXO'JAYEVA,**
**Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 7 - o'rta maktabning 4 - «A» sinf o'quvchisi.**



*Giyohvandlik - asr vabosi*

# OG'USIZ HAYOT SARI

XVI asr. O'shanda uni Yevropaga keltirdilar-da, dastlab dori sifatida foydalandilar. Shifokorlar uni bemorlarga tavsiya eta boshlashdi. Kuni kelib, bu «dori»ning naqadar xavfli ekanligini aniqladilar. Ammo endi kech edi. Avvalgi «bemorlar» endi «bangi» bo'lib ulgurishgandi. Insoniyat ushbu mash'um xatosi bilan o'z hayotini zaharlab qo'ydi o'shanda. U og'uli hayot sari dastlabki «salb yurish»ini boshladi. Mana, oradan qariyb 500 yil o'tsa hamki, bashariyat ana shu «mash'um xatoni» tuzatish uchun ovorai sarson.

Hayotimizga tobora chuqurroq kirib kelayotgan giyohvandlik baquvvat, azamat daraxtning ildiziga tushgan qurtga o'xshaydi. Agar u vaqtida yo'q qilinmasa, bora-bora daraxtning qulashi turgan gap.

Insonga bir martagina beriladigan hayotni qanday o'tkazish har kimning o'ziga bog'liq. 26-iyun jahon hamjamiyati tomonidan giyohvandlikka qarshi kurash kuni sifatida belgilangan bo'lsa-da, ongimizda, shuurimizda bu kurash yil bo'yi davom etmog'i lozim. Shundagina olis manzillarga qadalgan o'tli nigohlarimiz beiz bo'lmas.



*Sog'lom hayot uchun, azizim olg'a,*
*Bu kurash, jasorat, jonbozlik jangi.*
*Fidoyi yashamoq - oliy saodat,*
*Samolarda yangrasin kulgu jarangi.*

**Sadoqat DADAYEVA,**
**Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi1-maktabning 9-sinf bitiruvchisi.**

## «TONG YULDUZI» SEVIMLI GAZETAM



Men «Tong yulduzi» gazetasining har bir yangi sonini orziqib kutaman. Undagi qiziqarli maqolalar, rang-barang ruknlarni miriqib o'qiyman. Gazetada qiziqarli boshqotirmalar, topishmoqlar, shirin taom sahifalari ko'proq berilib borilsa, ayni muddao bo'lardi. Men Yakkasaroy tumanidagi 127-maktabning 3- «A» sinfida o'qiyman. Ingliz, rus, koreys tillarini qiziqish bilan o'rganayapman. Oilada ikki nafar farzandmiz. Ukam Javohir 5 yoshda. U bog'chaga boradi. Darsdan bo'sh vaqtlarimda onamga uy yumushlarida yordamlashaman. Ukam bilan o'ynayman. Yana tikish to'garagiga qatnashaman. Kitob o'qishni, rasm chizishni juda yaxshi ko'raman. Ba'zida ertaklar ham yozib turaman. Men sevimli gazetam «Tong yulduzi»ga o'zim chizgan rasmlarimni va ertagimni yuborayapman.

*Nargiza SHOG'ULOMOVA.*

## CHIN SO'Z

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda Hoshimjon ismli bir bola yashagan ekan. Bir kuni Hoshimjon buvisining holidan xabar olish uchun qishloqqa yo'l olibdi. Daryo yoqalab ketayotib, suvga iflos narsalarni oyog'i bilan tepib tushirib yuboribdi. Daryo qattiq xafa bo'lib, o'z o'zanida oqishda davom etibdi. Oqib-oqib kattakon qishloqqa yetib kelibdi. O'sha yerda istiqomat qiluvchi aholi uning suvidan ichib kun kechirishar ekan. ... endi gapni shu qishloqda yashaydigan Hoshimjonning buvisidan eshitaylik.

-Sodiqjon suv olib kelgin,- deb buyuribdi buvisi. U suv olish uchun qo'liga chelak olib daryo labiga yo'l olibdi. Suv to'la chelakni qo'liga olib qarasa, undagi suv iflos ekan. -Buvijon, daryodan olgan suvim iflos ekan, debdi Sodiqjon. Buvisi: «Suvni yana daryoga to'kdingmi?», deb so'raganda nabirasi: «Yo'q, iflos suvni chetga sepib yubordim, axir daryoga to'ksam u yana iflos bo'ladi-da»,- deb javob beribdi. Shunda buvisi: «Yaxshiyam to'kmabsan. Boshqa birovlar bu suvni ichishsa, kasal bo'lishardi»,- debdi. Zum o'tmay eshikdan Hoshimjon ko'rinibdi. «Voy aqlli bolamdan, buvisini ko'rgani kelibdi»- sevinib ketibdi buvisi va nabirasini bag'riga bosibdi.

-Sodiqdon jiyaningni suvga yuborsam, aqli kalta kishilar suvga iflos narsalarni tashlashganini xafa bo'lib aytayotgandi. Axir shu suvdan ichgan kishilarning holi nima kechishini nahotki ular bilishmasa-a? Yaxshiyam Sodiqjon bir chelak iflos suvni chetga sepib yuboribdi,-deya bosh chayqabdi buvisi. Hoshimjon yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi. Qilgan ishidan qattiq pushaymon bo'libdi. Endi u hech qachon suvni iflos qilmaslikka so'z beribdi. Bu uning chin so'ziy edi.



# SO'Z SEHRI

Tengdosh do'stingiz Doniyorbek Yerembetov asli Qoraqalpog'iston elining To'rtko'l tumanidan. Taqdir taqozosi bilan olti yildirki Toshkentda istiqomat qilmoqda. So'z san'ati fani - adabiyotni jon dilidan suyadi.

-Kitob- ustozim,-deydi u. Hikoyalar, she'rlar yozishni unga kitob o'rgatgan. - Ayniqsa, she'r yozganda, so'zning sehri meni o'z domiga tortadi.

Ha, she'riyat ilohiy ne'mat deganlari shudir balki. Doniyor endigina 16 yoshga qadam qo'ydi. Uning ilk mashqlari guldagi shabnam singari titroq, his-hayajonga yo'g'rilgan pokiza orzular.

-Men she'rlarimda katta gap aytgim keladi,- deydi u ma'noli ko'zlarini yuksaklarga qadab. Dunyoning bor-butun go'zalligi-yu kamoli, ulug'vorligi uning nazmiy satrlarida bo'y ko'rsatadi. U Vatan, mehr-muhabbat, adolat haqida qalam tebratishni yoqtiradi. Bu albatta uning o'ziga xosligi, o'zligidir. Uning ilk o'quvchisi munis onajonidir. Onasi Muslimaxon - o'qituvchi. Adabiyot va san'atni sevib, tushunib, ardoqlaydigan ustoz muallimalardan. Doniyor onasiga atab ko'plab she'rlar bitgan. Bobosi A'lam Jumayevich Yerembetov uzoq yillar To'rtko'lda maktab direktori vazifasida ishlab xalq maorifi a'lochisi, murabbiy - ustoz bo'lganlar. U kishi ham she'riyat shaydosi edilar. Ayni paytda Doniyor bobosining izini bosish, yaxshi ustoz bo'lish orzusida a'lo baholarga o'qimoqda.

-Shoirlik - buyuklik. Men unga intilaman, biroq da'vo qilmayman.

Intilganga tole yor. Doniyorbek, kitob va ijod seni sira tark etmasin. So'z sehriga oshufta qalbing, ruhing hamisha omon bo'lsin.

**Muhiba HAMIDOVA,**
**jurnalist, filologiya fanlari nomzodi.**

### ORZU-HAVAS

*Yuragimda unutilmas tilagim,*
*Yonib yashay, kuchga to'lib bilagim.*
*Chamanlarda bulbul bo'lib sayrayman,*
*Ona yurtim quchog'ingda yayrayman.*
*Ezgulikni, sadoqatni o'ylayman,*
*Muhabbatni yonib-yonib kuylayman.*
*Dilimda bor bir olam orzu-havas,*
*Yaxshilarning yodi hamroh bo'lsa bas.*

### PUSHTI ATIRGUL

*Uzib oldim pushti atirgul,*
*Biram nafis, chiroy o'zgacha.*
*Ko'ngillarga zavq beradi ul,*
*Ta'rifiga toldir so'zgacha.*
*Atring sochib maftun etasan,*
*Go'yo bog'da gullarning shohi.*
*Shabbodada boshing egasan,*
*Pari qizsan go'zallar mohi.*
*Aqlim hayron pushti atirgul,*
*Yuragimga ishonch joylanar.*
*Ishq maktubin bitayotir dil,*
*Bir muhabbat asla boylanar.*

### OYDIN KECHA

*Oydin-oydin kechalar,*
*Zor qilasan o'zingga.*
*Ayt-chi yana qanchalar,*
*Xor qilasan izingda.*
*So'zlarimni tinglaydi,*
*Oydin-oydin kechalar.*
*Xayol kezib tinmaydi,*
*Sensiz g'arib ko'chalar.*

**Doniyorbek YEREMBETOV.**

Aziz o'quvchilar! «Tong yulduzi» kutubxonasi» orqali berib borilayotgan to'plamingiz soni yana bittaga oshgani bilan tabriklaymiz. To'plam muallifini esa kasb bayramlari - matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni bilan qutlaymiz. Chunki taniqli olim Muxtor XUDOYQULOV uzoq yillardan beri bo'lajak shoiru jurnalistlarga saboq berib keladilar. Ustozning ilmiy-publitsistik kitoblari yonidan siz bolajonlarga atalgan ertagu hikoyalari ham joy olgan. Ayniqsa, masal yozish borasida Muxtor XUDOYQULOV bilan tenglashuvchilar barmoq bilan sanalarlidir, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu «Sanoq sonlar suhbati» deb nomlangan she'rlar to'plami qo'lingizga yetib borishi bilan uni o'zingiz kitobcha holiga keltirib oling. Bu Sizdan ozgina vaqt va e'tibor talab qiladi. Natijasi esa o'zingizga ma'lum: shaxsiy kutubxonangiz yana bir yangi «kitobcha» bilan boyidi.

## MUNDARIJA

So'z boshi....2
Bir....3
Ikki....4
Uch....5
To'rt....6
Besh....7
Olti....8
Yetti....9
Sakkiz....10
To'qqiz....11
Nol....12
O'n....13
Yigirma....14
O'ttiz....15
Qirq....16
Ellik....17
Oltmish....18
Yetmish....19
Sakson....20
To'qson....21
Yuz....22
Ming....23
So'nggi so'z....24
Topishmoqlar....27
Mundarija....30

30

qirqish chizig'i

## BESH

Besh degulik nomim bor,
Raqamlar ichra ilg'or.
Bir-bir qo'shsa anchaman,
Qo'ldagi besh panjaman.

Doim olsang besh baho
O'qishing bo'lar a'lo!
Besh qit'a bo'lsa o'rtoq,
Tinch bo'lar yaqin-yiroq.

Yaxshi tirish yozmoqqa:
Sal o'xshayman qarmoqqa.



7

## SO'NGGI SO'Z

Sanoq sonlar suhbati
Juda uzoq cho'zildi.
Milliondan milliard
Trillionlar tuzildi.

Raqamlar cheksizdirlar,
Bebaho, tengsizdirlar.
Olamdagi jami ish,
Qachon kelar yozu qish,

24

## QIRQ

Tanishaylik, nomim - Qirq,
Ishonmasang sanab chiq.
To'rtta o'ndan men jamman,
Ancha katta raqamman.

Ertaklarda bo'lar so'z:
Qirq kecha-yu, qirq kunduz.
Qirchillama qirq yoshda
El-yurt tashvishi boshda.

Tanishib oldikmi, soz:
To'rt yoniga nolni yoz!

16

## O'TTIZ

Meni deydilar O'ttiz,
Yaxshi biling, o'g'il-qiz.
Bo'lganda o'n uch joyda
Darrov bo'laman paydo.

Esda saqlash juda jo'n:
Bir oy bo'lar o'ttiz kun.
Ojiing, dadangdan so'ra,
O'ttizga kirgandir, a?

Uch yoniga nol qo'ysang
O'ttiz bo'laman, bilsang.

15

## OLTI

Beshdan keyin Oltiman,
Raqamlarni oldiman.
Ikki uchni qo'shsang bas,
Hech qachon esdan chiqmas.

Ota-ona, to'rt bola
Olti odam - oila.
Olti yoshing muborak,
Sanash uchun men kerak.

Yozishni lozim bilmoq:
Go'yoki oddiy ilmoq.



8

## MING

Ming degan yirik sonman,
O'nta yuzman, serjonman.
Minglikларning boshiman,
O'n minglarning yoshiman.

Yuztam bo'ladi yuz ming,
Ko'p qadim tarixga teng.
Keyin bo'ladi million
Cheksizdir olam va son.

Bilib olgin, iltimos:
Birga uch nol qo'shsang bas.

23

**Muxtor XUDOYQULOV**

SANOQ SONLAR SUHBATI
(Bolalar uchun she'rlar)





**«Tong yulduzi» 2004**

### TO'RT

Men To'rt degan raqamman,
Ikki ikkidan jamman.
Bo'lsa ikki juft o'rtoq
To'rtta ulfat o'sha choq.

Otning bor to'rt oyog'i,
Yaqin bo'lar uzog'i.
Bir yilda bor to'rt fasl,
Biri-biridan asl.

Yozishni mashq qil bicha:
Bir oyoqli narvoncha.



6

### YETTI

Mening nomimdir Yetti,
Endi demanglar mitti.
Oltidan bitta ko'pman,
Yetti yulduzman, to'pman.

Yetti kun hafta bo'lar,
Haftalardan oy to'lar.
Yetti yoshda albatta
Sen borasan maktabga.

Chizgin-da kichik o'roq,
Belgiga bog'la belbog'.



9

### YIGIRMA

Derlar meni Yigirma,
Yag'in tanimay yurma.
Ikki o'nni qo'shganda
Hosil bo'laman shunda.

Ikki qo'l, ikki oyoq
Sana yigirma barmoq.
Yigirma yosh bo'lar zo'r,
Akang bo'lsa so'rab ko'r.

Ikkining yonida nol-
Yigirma-da, bilib ol.

14

### ELLIK

Meni Ellik deydilar,
Fe'li kenglik deydilar.
Besha o'nning jamiman,
Yuzning rosa yarmiman.

Ellik yil - yarim asr;
Umrda bitta qasr.
Ellik yosh - hiyla katta,
El ishi-chun xizmatda.

Yozishni bildingmi, xo'sh?
Besh yoniga nolni qo'sh...

17

### YUZ

Bilib ol, ey qorako'z,
Ro'paranga menman - Yuz.
Sonlar ichra ko'p yirik,
O'nta o'n, ikki ellik.

Kimning ishi bo'lsa yuz
Doim unda yorug' yuz.
Yuz yosh - bir asr demak,
Katta baxt - yuzga kirmak!

Yozishni mashq qil biroz:
Biru ikki nol xolos.

22

Yulduzlarning sanog'i,
Dunyo boshi - adog'i,
Uchqichlarning parvozi,
Hosilning ko'pi ozi,

Jamiki hisob-kitob
Hatto Oyu Oftob
O'lchanur raqam bilan,
Qo'shuv, oluv, jam bilan.

Ko'paytiruv ham bo'lish,
Lozimdir yaxshi bilish!
Bizning ulug' bobolar,
Allomalar, donolar,

25

qirqish chizig'i

Men bir oddiy quticha,
E'tibor ber-chi picha.
Zangori nur sochaman,
Mo'jizalar ochaman.

Olamning oynasiman,
Bolalar oshnasiman.
Ammo me'yor bilan ko'r,
Ismimni ........



29

## SO'Z BOSHI

Sanoq sonlar yig'ilib,
Bir kun suhbat qurishdi.
Safga qator tizilib,
Hurmat bilan turishdi.

Bir, Ikki, Uch, To'rtu Besh.
Olti, Yetti... To'qqiz, O'n,
So'ng o'nliklar o'rtoq, esh,
Keyin Yuz, Ming, Million.

Barchasi qon-qarindosh,
Yelkadoshdir bir-birga.
Birinchi so'z - kenja, yosh-
Ukajonlari Birga:

2

qirqish chizig'i

## UCH

Uchta birman, nomim - Uch,
Birlashganda bo'lar kuch.
Uchgacha sanayman, der,
Shart o'ynagan har bir «sher».

Uch bor o'qilsa duo
Dilimizga bo'lar jo.
Uchga kirgan chaqaloq,
Qanday shirin, baqaloq!

Yozish qiyinmas uncha:
Tishlangan ikki kulcha...



5

Xorazmiy, Al-Farg'oniy,
Ulug'bek, Ko'ragoniy
Yana ne-ne olimlar
Son haqida bilimlar-

Sohasin boyitishgan,
Ko'p asarlar bitishgan.
Sana, qo'lda, qog'ozda,
Kompyuterda ko'p soz-da!

Sonlar-la bo'lsang o'rtoq
Xizmating qilar har choq!
Dunyoni bilish kerak,
Hisobni qilish kerak!

26

## OLTMISH

Oltmish degan nomim bor,
Raqamlar ichra nomdor:
Oltita o'n bo'lsa jam
Tayyor bo'laman men ham.

Yaxshi bilish-chun bizni
Qo'shing ikki o'ttizni.
Ko'rsang oltmish yoshli chol
Bobo degin bemalol.

Oltining yonida nol-
Oltmish bo'lar, ogoh bo'l!

18

## O'N

Biling, O'n degan sonman,
Men ko'pman, o'nta jonman.
Ikki qo'lda bor panja-
Qancha bo'lsa - men shuncha.

Bilish qiyin emas hech,
Qo'shilsa bas ikki besh.
O'zim-ku, hali yoshman,
O'nliklarga bosh-qoshman.

Yozilishim juda jo'n:
Biru nol - bo'ladi o'n.

13

## SAKKIZ

Sanamay demang sakkiz,
Ikki to'rtni qo'shsangiz-
Hosil bo'laman shu on,
Yaxshi bilgin, ukajon.

Men - yettining akasi,
Sanoq sonlar sarasi.
Sakkizga yetsa yoshing
O'qiysan sinf oshib.

Yozilishim bil, qani,
Tasavvur qil pillani.



10

## TO'QSON

To'qson deydilar meni,
Ko'p son deydilar meni.
Behisob o'g'il, qizim,
Bordir o'nta to'q qizim.

Xo'p mo'ysafid raqamman,
Yuzdan ozgina kamman.
Ulug'man xullas kalom,
Ko'rgan deydi: assalom.

To'qqizu nol - to'qsonman,
Juda tabarruk sonman.

21

## YETMISH

Tanib ol - nomim Yetmish,
Dovrug'im juda ketmish.
Yettita o'n bo'laman,
Ulug' yoshga to'laman.

Kim ko'rsa yetmish bahor
Bilki, uning baxti bor.
Ko'rsang yetmish yosh bobo,
Ta'zim qilgin doimo.

Osondir meni bitish:
Yetti-yu nol - bu yetmish.

19

## NOL

Diqqat, mening nomim - Nol
O'quvchim, sen ogoh bo'l.
Yolg'iz tursam - yo'qman men,
Sherik bo'lsa - to'qman men.

Oldimda tursa akam
Zo'r bo'laman chinakam.
O'nu yuz, ming, million,
Qo'shaversang oshar son.

Yozilishim qiyinmas:
Dum-dumaloq chizsang bas.

12

qirqish chizig'i

## TO'QQIZ

Men To'qqizman, To'qqizman,
Sonlar ichra yolg'izman.
Sakkizdan bitta katta,
Bilib qo'ying albatta.

Uch joyda uch bo'lsa jam
Hosil bo'laman shu dam.
Kim kirsa to'qqiz yoshga
Aqli to'ladi boshga.

Yozishni o'rgan asta:
Ilmoqman - dumi pastda.



11

## SAKSON

Men Sakson degan sonman,
Juda bobokalonman.
Sakkizta o'n o'g'lim bor,
Soch-soqolim oppoq qor.

Ikki qirqni ko'rganman,
Dunyo kezib yurganman.
Duch kelganda sakson yosh
Hurmat bilan eggin bosh.

Meni yozish op-oson:
Sakkiz bilan nol - sakson.

20

28



Men ham oddiy qutiman,
Ammo aql o'timan.
Xotiram kuchli, go'yo-
Sig'adi butun dunyo.

Bilsang men senga dastyor,
O'yinlarim ko'p, bisyor:
Qani, menga ko'ngil ber;
Nomim mening..........

3

## BIR



Bir degan sanoq sonman,
Sanash uchun osonman,
Bitta yurak, bitta bosh,
Bitta Oyu bir Quyosh.

Ona Vatan - yagona,
Kurramiz ham bir dona,
Bittadandir har inson,
Qo'shaloq - ming, million.

Yozishga ham o'ng'ayman:
Qoziqchaga o'xshayman.

4

## IKKI



Ikki degan nomim bor,
Ikki birdan - men tayyor:
Ikki qo'l, ikki oyoq,
Ikki ko'z, ikki quloq.

Ota-ona - ikki jon,
Ikkisi ham mehribon.
Juft bo'ladi ikki tog',
Meni yaxshi bil, o'rtoq!

Nimaga o'xshayman, xo'sh?
Xuddi ko'ldagi oqqush...

27

## TOPISHMOQLAR



Farzlardan so'zlaydi,
Yaxshilikni ko'zlaydi.
Qadimlarning naqlidan,
Donolarning aqlidan

So'zlab onging oshirar,
Zakovating toshirar;
U nimadir, Mohitob?
Topdim, topdim, u- ......!

*Suratda sizga jiddiy boqib turgan bu bolaning ismi Sanjar. U tahririyatimizning kichik xodimiga aylanib qolgan. Deyarli har kuni gazetamizning matnlari terilishidan to bosilishiga qadar shu yerda bo‘ladi. Kompyuterda ishlashga juda qiziqadi. Hatto suratlarni gazetaga ko‘chirishda ham yordam berib turadi. Siz ham u bilan tanishishni xohlaysizmi, marhamat!*

# BOBOM AYTGAN ERTAKLAR

-Ism-sharifim - Sanjar G‘ofurov, 1994 yil, 6-iyulda tug‘ilganman. Shayxontohur tumanidagi xitoy va koreys tiliga ixtisoslashgan 59-maktabning 3-«A» sinfida o‘qiyman. Men bu maktabga yaqinda o‘qishga keldim. 1-2-sinfni Sebzor dahasidagi 146-maktabda o‘qiganman.

***-Qadrdon sinfdoshlaringizdan ajrab, boshqa maktabga kelganingizda qanday holatga tushgansiz?***

-Ba’zi bolalar yangi maktabga o‘tishganda, o‘zlarini boshqa dunyoga tushib qolgandek his qilishadi. Men esa sinfdoshlarim bilan tezda kirishib ketdim. Ayniqsa, Behzod va Islom ismli bolalar bilan qalin do‘st bo‘ib qoldik.

***- Maktabingiz haqida gapirib berasizmi?***

-Maktabimizda xitoy va koreys tillari boshlang‘ich sinflardan o‘rgatiladi. Men xitoy tilida o‘qiyman, yoza olaman. Biz harflar jamlanmasini alifbo deb atasak, ularda harflar emas, iroglaflar deb nomlanadi. Xitoy tilini bizga ustozimiz Fotima opa o‘rgatadilar. Ularning qatiqqo‘lligi, talabchanligi bizga yoqadi. Chunki ustoz shunday bo‘lmasa, o‘quvchilar yaxshi o‘qimasliklari mumkin.

***-Irograflarda mustaqil yoza olasizmi?***

-Hozircha yo‘q, lekin tez orada o‘rganib olaman. Ko‘pincha uy vazifalarida qiynalib qolaman. Shunday paytlarda menga Saida opam yordam beradilar.



***-Bo‘sh vaqtlaringizda nimalar bilan mashg‘ulsiz?***

-Kitob o‘qiyman, sportning boks turi bilan shug‘ullanaman. Yana kompyuter o‘yinlarini o‘ynayman, o‘zimga notanish bo‘lgan kompyuter dasturlarini o‘rganaman.

***-Sanjar, kompyuterda ishlashni sizga kim o‘rgatgan?***

- Oyim va dadajonimdan o‘rganganman. Oyim «Ijod dunyosi» nashriyot uyining rejalashtirish bo‘limida ishlaydilar. Lekin asosan dadam dasturlash, kitob muqovalashni o‘rgatganlar. Ular poytaxtimizdagi Mas’uliyati cheklangan jamiyat «POLE PAPER» bosmaxonasida bosh direktor bo‘lib ishlaydilar. Ba’zida uyga turli kitoblar olib keladilar. Men hatto «Yulduzlar» deb nomlangan kitobchaning muqovasini ishlaganman.



***-Juda zo‘r-ku! Demak, siz kompyuterda bemalol ishlay olasiz? Lekin uning zararli tomonlarini ham bilasizmi?***

-Bilaman. Monitordan odam nurlanib qolmasligi uchun uning oldiga kaktus qo‘yib qo‘yish kerak. Iloji bo‘lsa, uning oldida kamroq o‘tirgan ma’qul.

***-Yozgi ta’tilda nimalar qilmoqchisiz?***

-O‘zimiz «dom»da turamiz. Yozda issiq bo‘lib ketadi. Ba’zida oyim bilan «Otchopar» tarafda turadigan buvimning uylariga borib turamiz. Tog‘amning bolalari bilan mazza qilib o‘ynab, dam olamiz. Yana iyul oyida «Sharq» matbaa konserniga qarashli «Gagarin» nomli bolalar oromgohiga boraman. Avgust oyidan esa Shayxontohur tumanidagi o‘quv markaziga chet tillarini o‘rganish uchun qatnayman. Turli uy hayvonlarini boqishga qiziqaman. Ayniqsa, quyon bilan kuchuk jonu dilim. Lekin uyimiz tor bo‘lgani uchun ularni boqishning iloji yo‘q.

***-Sanjar, ertaklarga ham qiziqasizmi?***

-Ha, bobom menga juda ko‘p ertaklar aytib beradilar. Ularning aytishlaricha, ertak eshitib o‘sgan bola Vatanga, ota-onasiga, do‘stlariga g‘amxo‘r va mehribon bo‘larkan.

***-Kelajakda kim bo‘lmoqchisiz?***

-Advokat bo‘lmoqchiman.

***-Suhbatimiz so‘nggida tengdoshlaringizga xitoy tilida nimadir yozib bera olasizmi?***

- Hozircha «Men zavodga boraman» degan so‘zni yozib beraman. Keyinchalik bu tilda ertak ham yozmoqchiman.



***Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.***

# YOZUVCHILAR IJODIDA TABIAT VA INSON

*Tadbir*

Bugungi kunda ekologiya, atrof-muhit muhofazasi ancha murakkablashgan. Ekologiya muammosi butun dunyo jamoatchiligining diqqat-e’tiborida. Albatta bu muammo insoniyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatga bog‘liq. Ya’ni, biz tabiat va atrof-muhitga qanchalik ehtiyotkorona munosabatda bo‘lsak, nafaqat o‘zligimizning, balki kelgusi avlodlarning ham sog‘lom turmush tarziga asos solgan bo‘lamiz.

Yaqinda mamlakatimizda «Ekologiya va salomatlik kunlari» doirasida Butunjahon atrof-muhit kuniga bag‘ishlangan «Sanitariya, gigiyena va ekologik madaniyat» dekadasi bo‘lib o‘tdi. «Ekosan» xalqaro jamg‘armasi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorlikda ushbu dekada rejasiga ko‘ra «Do‘rmon yozuvchilar bog‘i»da «Yozuvchilar ijodida tabiat va inson» mavzusida uchrashuv o‘tkazildi. Tadbirni o‘tkazishdan asosiy maqsad - atrof-muhit muhofasini badiiy asarlarda, hujjatli va badiiy kinolentalarda, turkum teleko‘rsatuvlar, ijtimoiy roliklar va teatrlashtirilgan sahna asarlarida aks ettirish orqali ekologiya, atrof-muhit muammolari va ularning salbiy oqibatlarini ochib berish, insoniyat va nabodotning o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishi haqida insonlarda tushuncha hosil qilish, tabiat go‘zalliklarini qardlashga undash masalalari muhokama etildi.





Anjumanda «Ekosan» xalqaro jamg‘armasi prezidenti Yusufjon Shodimetov, O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi, «Ekosan» Toshkent klubi a’zosi Abdulla Oripov, Toshkent viloyati, Qibray tumanidan kelgan vakillar, shuningdek, taniqli olimlar, yozuvchi va shoirlar so‘zga chiqib, o‘zaro fikr almashdilar.

Tadbir so‘nggida yozuvchi va shoirlarga «Ekosan» xalqaro jamg‘armasining xayriya sovg‘alari topshirildi.

***Nosir BOYMIRZAYEV.***

# «OLTIN TOJ» SOHIBI

Muhammadsodiq RAHMONOV-sizning tengdoshingiz. Maktabda a’lo baholarga o‘qiydi. Adabiyotga, she’riyatga ishtiyoqi baland. She’riy mashqlar, hikoyalar yozadi.

Ularni jamlab, o‘zi uchta she’riy to‘plam tuzibdi. Bu ham bir yaxshi niyat-da!

Muhammadsodiqni «Shoirlar bolalarga», «Mo‘jizalar maydoni» kabi ko‘rsatuvlarda ko‘rgan bo‘lsangiz, ajabmas. Bilimdonu zukkoligidan bir emas ikki bor boshiga «Oltin toj»ni kiyishga muvaffaq bo‘lgan.

Muhammadsodiqdan kelajakdagi ajoyib ijodkor chiqishiga umid qilamiz. Quyida uning ijodidan namunalar o‘qiysiz:

*Tengdoshlaring ijodi*

### RAHMAT, MUALLIM!

*O‘qitasiz bizni chin dildan,*
*Kitoblarga oshno etasiz.*
*Ertamizdan umidvor bo‘lib,*
*Akademik, olim kutasiz.*
*Mehringizdan ko‘ngillar shodon,*
*Ishonchingiz biz ham oqlaymiz.*
*Xuddi ona so‘zidek munis,*
*Nomingizni dilda saqlaymiz.*

### MENING CHAMANIM

*Yashash uchun baxtiyor,*
*Chamanlar ko‘p dunyoda.*
*Mening ham o‘z chamanim bor,*
*Orzularim ziyoda.*
*Bilimga intilaman,*
*O‘rganaman ko‘p hunar.*
*Tanlar sirin bilaman,*
*Vaqtim ketmas besamar.*
*Doimo tinchlik bo‘lsin,*
*Yo‘llarimiz nurafshon.*
*Orzuimiz ushalsin,*
*Gullab yashnasin zamon.*

